

HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARMOG'INING TUTGAN O'RNI

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Sanoatning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, investitsiya oqimi, innovatsion faollik va eksport salohiyati ko'rsatkichlari asosida yoritilgan. Tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi, klaster yondashuvi va endogen o'sish konsepsiyasi asosida sanoatning multiplikativ ta'siri baholangan. Natijada sanoat tarmog'i hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hudud iqtisodiyoti, sanoat tarmog'i, iqtisodiy o'sish, klaster, investitsiya, innovatsiya, bandlik, yalpi hududiy mahsulot.

Аннотация

В статье научно и практико-ориентированно проанализирована роль промышленности в развитии региональной экономики. Рассматривается влияние промышленного сектора на экономический рост региона через показатели объема производства, занятости, инвестиционной активности, инновационного развития и экспортного потенциала. Исследование основано на теориях региональной экономики, кластерном подходе и концепции эндогенного роста. Сделан вывод о том, что промышленность выступает стратегическим фактором устойчивого развития региона.

Ключевые слова: региональная экономика, промышленность, экономический рост, кластер, инвестиции, инновации, занятость, валовой региональный продукт.

Abstract

This article analyzes the role of the industrial sector in regional economic development from both theoretical and practical perspectives. The impact of industry on regional economic growth is examined through indicators such as production volume, employment level, investment activity, innovation performance, and export potential. The research is based on regional economic theory, cluster approach, and endogenous growth theory. The findings confirm that the industrial sector serves as a strategic driver of sustainable regional development.

Keywords: regional economy, industrial sector, economic growth, cluster, investment, innovation, employment, gross regional product.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida hududlar iqtisodiyotining barqaror o'sishi ko'p jihatdan sanoat tarmog'ining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Sanoat ishlab chiqarish - iqtisodiyotning real sektorini tashkil etuvchi asosiy yo'nalishlardan

biri bo'lib, u hududda yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining oshishi, bandlik darajasining yaxshilanishi, investitsion jozibadorlikning kuchayishi hamda infratuzilmaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat korxonalari joylashuvi hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotida sanoatning o'rnini, avvalo, qo'shimcha qiymat yaratish darajasi bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligi yoki xomashyo eksportiga asoslangan iqtisodiyotdan farqli ravishda, sanoat tarmog'i yuqori qayta ishlash bosqichini ta'minlaydi va mahsulot qiymatini bir necha baravar oshiradi. Bu esa hudud byudjetiga tushumlarning ko'payishiga, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayishiga hamda aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Sanoat tarmog'i hududda mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi ish o'rinlari sonining ortishiga, malakali kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishiga va mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Bu jarayon o'z navbatida hududning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Zamonaviy sharoitda sanoatning innovatsion yo'nalishda rivojlanishi, ya'ni yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning kengayishi hudud iqtisodiy barqarorligining asosiy kafolatiga aylanmoqda.

Hududiy sanoat siyosati infratuzilma rivoji, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, investitsiyalarni jalb qilish va sanoat klasterlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, sanoat klasterlari hudud ichida ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi va eksport salohiyatini oshiradi.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlar o'rtasida investitsiya, innovatsiya va ishlab chiqarish resurslari uchun raqobat keskinlashib bormoqda. Shu sababli hudud iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarmog'ining rolini chuqur tahlil qilish, uning iqtisodiy samaradorlikka, bandlikka va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat tarmog'ining o'rnini va ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berish, uning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlarini aniqlash va samaradorlikni oshirish yo'llarini taklif etishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hudud iqtisodiyotini rivojlantirish masalasi iqtisodiyot fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda sanoat tarmog'i asosiy drayver sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda sanoatning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri ishlab chiqarish salohiyati, bandlik darajasi, innovatsion faollik va infratuzilma rivoji bilan bog'liq holda keng yoritilgan. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari sanoatni hududiy ishlab chiqarish kuchlarining markazi sifatida ko'rganlar. Jumladan, Alfred Marshall sanoat okruglari nazariyasida bir hududda korxonalar konsentratsiyasi mehnat bozorining

kengayishiga, bilim va tajriba almashinuviga hamda ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga olib kelishini asoslab bergan. Uning fikricha, sanoatning hududiy klasterlashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va hududiy rivojlanishga turtki beradi. Shuningdek, sanoatni joylashtirish nazariyasini ishlab chiqqan Alfred Weber transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillari sanoatning hududiy rivojlanishdagi asosiy determinantlari ekanligini ta'kidlagan. Bu yondashuv sanoat tarmog'ining hudud iqtisodiyotini shakllantirishdagi iqtisodiy-geografik ahamiyatini ochib beradi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda sanoatning hududiy rivojlanishdagi roli innovatsion va endogen o'sish nazariyalari doirasida talqin qilinadi. Paul Romer tomonidan ishlab chiqilgan endogen o'sish nazariyasiga ko'ra, sanoat texnologik taraqqiyot va ilmiy-tadqiqot faoliyati orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Hududda sanoatning rivojlanishi innovatsion muhitni shakllantiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va mahalliy byudjet daromadlarini oshiradi. Klaster yondashuvi ham hududiy sanoat rivojlanishini izohlovchi muhim nazariyalardan biridir. Michael Porter sanoat klasterlarini hududiy raqobatbardoshlikning asosi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, sanoat korxonalarining bir hududda joylashuvi ta'minot zanjirlarini mustahkamlaydi, innovatsiyalarni tezlashtiradi va eksport salohiyatini oshiradi. Klasterlashuv jarayoni hududiy infratuzilma rivojlanishini ham jadallashtiradi.

Institutsional yondashuv vakillari sanoatning hududiy rivojlanishga ta'sirini samarali boshqaruv va huquqiy muhit bilan bog'laydilar. Douglass North institutsional omillarning iqtisodiy o'sishdagi rolini asoslab, sanoat rivojlanishi mustahkam huquqiy baza va samarali davlat siyosatisiz barqaror bo'la olmasligini ta'kidlagan. Demak, sanoat tarmog'ining hudud iqtisodiyotiga ta'siri nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki boshqaruv sifati bilan ham belgilanadi. Xalqaro tajribada sanoat hududiy rivojlanish strategiyasining markaziy elementi sifatida qaraladi. Masalan, Germaniyada sanoat klasterlari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Janubiy Koreyada eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosati qisqa muddatda iqtisodiy sakrashni yuzaga keltirdi. Xitoyda esa maxsus iqtisodiy zonalar sanoatni hududiy rivojlanishning lokomotiviga aylantirdi. Bu tajribalar sanoatning multiplikativ ta'sirini yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiy adabiyotlarida ham hududiy sanoat rivojlanishi masalasi keng o'rganilgan. Tadqiqotlarda sanoatni hududiy ixtisoslashtirish, klasterlashuv, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Empirik tahlillar sanoat ulushi yuqori bo'lgan hududlarda yalpi hududiy mahsulot o'sishi tezroq ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmog'i hudud iqtisodiyotining tayanch sohasi hisoblanadi. U bandlikni oshiradi, byudjet tushumlarini ko'paytiradi, innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois hududiy rivojlanish strategiyalarida sanoat siyosatini takomillashtirish, klasterlashuvni kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot hudud iqtisodiyotida sanoat tarmog'ining rolini aniqlash va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi, sanoatni joylashtirish konsepsiyasi hamda klaster yondashuviga asoslanadi. Ish jarayonida nazariy tahlil va umumlashtirish usullari orqali ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Statistik va solishtirma tahlil yordamida hududlar kesimida sanoat mahsuloti hajmi, bandlik darajasi va yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari baholandi. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishi va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil elementlaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot manbalari sifatida rasmiy statistik ma'lumotlar, hududiy rivojlanish dasturlari va ilmiy manbalar qo'llanildi. Qo'llanilgan metodologiya sanoat tarmog'ining hudud iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini obyektiv baholash va amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat milliy iqtisodiyotning barcha sohalarini ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi asosiy tarmoq hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, shuningdek fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm hamda boshqa ijtimoiy sohalarining o'sishi va takomillashuvi bevosita sanoat taraqqiyoti darajasiga chambarchas bog'liq[12]. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki[13],[14],[15],[16] sanoat tarmog'i iqtisodiy o'sish jarayonlarini jadallashtiruvchi yetakchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat, avvalo, sanoat sohasida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan innovatsion yondashuvlar, ilmiy-texnik yutuqlar hamda bilim va texnologiyalarning yangi kombinatsiyalarini joriy etish darajasi ancha yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Sanoatda innovatsiyalarning faol qo'llanilishi ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Natijada mehnat unumdorligi o'sadi, ishlab chiqarish hajmlari kengayadi hamda qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlari jadallashadi. Shu orqali sanoat tarmog'i milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik asosiy drayver sifatida muhim o'rin tutadi.

Hozirgi sharoitda sanoat tarmog'i bozor mexanizmlarida barqaror muvozanatni shakllantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash hamda ishlab chiqarish jarayonlarini mahalliyashtirish bilan bog'liq dolzarb masalalarni samarali hal etishda muhim iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Sanoatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni uning qator strategik funksiyalari orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi. Avvalo, sanoat tarmog'i bandlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qayta ishlovchi sanoatda yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham multiplikativ ta'sirni yuzaga keltiradi. Ya'ni mazkur tarmoqda yaratilgan har bir ish o'rni transport, savdo, xizmat ko'rsatish va qo'shimcha infratuzilma sohalarida ikki yoki hatto uchta yangi ish o'rnining paydo bo'lishiga turtki beradi. Bu esa umumiy bandlik darajasining oshishi va mehnat

bozorida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi[17].

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnatga haq to'lash darajasining o'sishi sanoatni rivojlantirishga qaratilgan industrialashtirish jarayonlari va tarkibiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Sanoatda qo'shimcha qiymat yuqori bo'lgan ishlab chiqarishlarning kengayishi mehnat unumdorligini oshiradi, bu esa ish haqi o'sishi uchun iqtisodiy asos yaratadi. Natijada aholi daromadlari barqaror o'sib boradi, ijtimoiy farovonlik yaxshilanadi hamda kambag'allik darajasini qisqartirish uchun mustahkam iqtisodiy zamin shakllanadi[18]. Yuqorida keltirilgani kabi sanoatning rivojlanishi milliy iqtisodiyotda qanday ahamiyat kasb etsa, hududlarni rivojlanishida ham shunday ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sanoat siyosati hudud rivojlanishining maqsadlariga tayanadigan holda, rivojlanish vositalaridan foydalanib, jumladan resurslar, rivojlanish manbalari va shart-sharoitlarini, ta'sir ko'rsatish shakllarini qamrab olgan holda, sanoat rivojlanishining aniq natijalarini qo'lga kiritishga yo'naltirilishi lozim.

Avvalo, rivojlanish maqsadlari nuqtai nazaridan qaralganda, qo'shilgan qiymatni oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, mahsulotning fan-texnika sig'imini yuksaltirish va yalpi hududiy mahsulot o'sishini ta'minlash kabi strategik vazifalar to'g'ridan-to'g'ri sanoat rivoji bilan bog'liq. Chunki, aynan sanoat tarmog'i yuqori qiymat yaratadigan, innovatsiya va texnologiyalarni jadal joriy etadigan asosiy sohadir. Shu bois hudud iqtisodiyotining sifat jihatidan o'sishi, uning milliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchidan, resurslar (moddiy, mehnat, moliya-kredit va tabiiy) aynan sanoatda kompleks va samarali foydalaniladi. Rivojlanish manbalari sifatida ko'rsatilgan ilmiy-texnik ishlanmalar, yangi texnologiyalar, mahsulotning yangi turlari va boshqaruvning zamonaviy usullari esa sanoat tarmog'ida eng avvalo sinovdan o'tadi va iqtisodiyotning boshqa sohalariga tarqaladi. Bu holat sanoatning innovatsiyalarni tarqatuvchi tarmoq sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Uchinchidan, ta'sir etish shakllari - soliq-byudjet siyosati, qonunchilik, davlat buyurtmasi va davlat ishtirokidagi boshqaruv mexanizmlari - amaliyotda ko'p jihatdan sanoatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'ladi. Shu orqali davlat hududiy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantiradi, ustuvor sanoat tarmoqlarini shakllantiradi va xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratadi.

To'rtinchidan, rivojlanish shartlari qismida ko'rsatilgan iqtisodiy boshqaruv sifati, resurslardan foydalanish darajasi, ilmiy-texnik ishlanmalardan samarali foydalanish, tashkiliy-huquqiy sharoitlar hamda sanoat tuzilishini tarkibiy o'zgartirish imkoniyatlari hududiy iqtisodiyotda sanoatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki, aynan sanoat tarmog'ida bu shartlar to'liq amalga oshirilgan taqdirda, iqtisodiy o'sish barqaror va uzoq muddatli tus oladi.

Nihoyat, rivojlanish natijalari sanoat tarmog'ining hududiy iqtisodiyotga ko'p qirrali ta'sirini ochib beradi. Iqtisodiy natijalar sifatida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, eksport salohiyatining kengayishi, mahalliy byudjet samaradorligining oshishi va boshqaruv samaradorligining yuksalishi aynan hududiy sanoat ishlab chiqarishining bevosita rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy jihatdan esa bandlik va ish haqining

oshishi, mehnat unumdorligining o'sishi, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi aholi turmush darajasini ko'tarishga xizmat qiladi. Ekologik natijalar esa atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejash va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'minlash orqali sanoatning "yashil" transformatsiyasi imkoniyatlarini namoyon etadi.

Demak, sanoat va sanoat tarmoqlarini rivojlantirmasdan turib hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishi, raqobatbardoshligi va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga erishish deyarli mumkin emas.

Aytish joizki, sanoat tarmog'i - ishlab chiqariladigan mahsulotning iqtisodiy mazmuni umumiy bo'lgan, foydalaniladigan xom ashyo va materiallari bir xil, texnik va texnologiya jihatidan yaqin, maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega kadrlar faoliyat yuritadigan hamda ishlash shart-sharoitlari o'xshash bo'lgan korxonalar majmuidir.

Sanoat rivojlangan sari uning tarmoq tuzilmasi ham o'zgaradi, samarasi past tarmoqlar qisqaradi, zamonaviy va raqobatbardosh tarmoqlar esa yetakchi o'rinni egallaydi. Sanoat tarmoq tuzilmasining ratsional shakllanishi tarmoq rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Sanoatning tarmoq tuzilmasi - sanoat tarkibiga kiruvchi tarmoqlar yoki komplekslar majmuasi hamda ularning sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi bo'lib, ushbu tuzilma doimo harakatda bo'ladi va quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi[19]:

- Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi. Mazkur omil ta'siri ostida sanoatning yangi tarmoqlari va ishlab chiqarish turlari shakllanadi. Xususan, so'nggi yillarda ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi natijasida kimyo sanoati, energetika mashinasozligi, kosmik texnika ishlab chiqarish kabi tarmoqlar vujudga keldi va rivojlandi;

- Davlatning iqtisodiy siyosati. Davlat o'zining tanlagan siyosati orqali iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan ayrim sanoat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin, bu esa ularning rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi;

- Mamlakatda sanoat uchun foydali qazilmalarning mavjudligi. Mamlakat muayyan foydali qazilmalarga qanchalik boy bo'lsa, boshqa shartlar teng bo'lgan holda, qazib oluvchi tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi shunchalik yuqori bo'ladi;

- Aholining madaniy darajasi va moddiy farovonligi. Bu omil sanoatning tarmoq tuzilmasiga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, aholining moddiy ahvoli qanchalik yuqori bo'lsa, iste'mol tovarlarini xarid qilish imkoniyati shunchalik ortib boradi, bu esa ularni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishiga asos bo'ladi. Mamlakatda o'rta sinfnining mavjudligi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar - avtomobillar, muzlatkichlar, videomagnitofonlar, radioapparat va boshqalarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar rivojini rag'batlantiradi;

- An'anaviy ravishda shakllangan ixtisoslashuv;

- Turli manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan kapital qo'yilmalarning rejali tarmoq tuzilmasi.

Sanoatning tarmoq tarkibi turli mezonlar bo'yicha tavsiflanadi. Masalan, "Barcha turdagi iqtisodiy faoliyatlarning Xalqaro standart tarmoq tasniflagichi" bo'yicha

sanoatning umumiy tarkibi quyidagi tarmoqlarga bo'linadi[20]:

S. Ochiq konlarni qayta ishlash va qazib olish sanoati.

D. Qayta ishlovchi sanoat.

E. Elektroenergiya, gaz va suv ta'minoti.

Yuqorida nomlari keltirilgan sanoat tarmoqlari o'z navbatida 300 dan ortiq mayda sanoat tarmoqlariga ajraladi. Bularning ichida eng yirigi qayta ishlovchi sanoat yoki ishlab chiqaruvchi sanoat hisoblanadi.

Rodionova jahon sanoat tarmog'ini tasniflashda uning tarmoq tuzilishini ishlab chiqarish (texnologik), tashkiliy, ijtimoiy hamda hududiy tuzilishlarini ajratadi[21].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aksariyat, mamlakatlar sanoatning tarmoq tuzilishi bo'yicha, yiriklashgan holda qazib oluvchi, qayta ishlovchi hamda uchinchi sanoat tarmog'i sifatida elektr, gaz va bug' ishlab chiqarish, suv ta'minoti va taqsimoti, chiqindilarni qayta ishlash kabi sanoat tarmoqlariga ajratiladi.

Ayrim tadqiqotlarda sanoat tarmog'i ikkita yirik tarmoqqa, ya'ni yoqilg'i - xom ashyo hamda qayta ishlovchi sanoat tarmoqlariga ham ajratiladi[22]. Bunday tasniflashga ko'ra, yoqilg'i - xom ashyo tarmog'i tarkibiga, yoqilg'i - energetika majmui (YOEM), metallurgiya, qurilish materiallari sanoati va paxta tozalash sanoati kabilar kiritiladi.

Mehnat predmetiga ta'sir etish xususiyatiga ko'ra, sanoatning barcha tarmoqlari qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarga ajratiladi. Qazib oluvchi sanoat tarmoqlariga mansub korxonalar va birlashmalar tabiiy xom ashyoni bevosita qazib chiqarish va tayyorlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, sanoatning umumiy tarkibida qazib oluvchi va qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining hissasi yuqori hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat hududiy iqtisodiy tizimning tayanch va strategik sohasi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda asoslab berilganidek, sanoat tarmog'i ishlab chiqarish hajmini oshirish, bandlikni kengaytirish, daromadlar darajasini ko'tarish hamda hududiy byudjet tushumlarini barqaror shakllantirish orqali iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri vazifasini bajaradi.

Klassik va zamonaviy nazariyalar sanoatning hududiy konsentratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishini, klasterlashuv jarayoni esa innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishini isbotlaydi. Endogen o'sish konsepsiyasiga ko'ra, sanoat ilmiy-texnik taraqqiyot va inson kapitali rivoji orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Institutsional yondashuv esa sanoat samaradorligi samarali boshqaruv, investitsion muhit va huquqiy barqarorlik bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Amaliy tajribalar ham shuni tasdiqlaydiki, sanoat ulushi yuqori bo'lgan hududlarda yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlari tezroq, infratuzilma rivoji yuqori va eksport salohiyati kengroq bo'ladi. Sanoatning multiplikativ ta'siri xizmatlar sohasi, transport, logistika va kichik biznes rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda sanoatni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va "yashil" texnologiyalarni joriy etish hududiy

rivojlanishning ustuvor yoʻnalishiga aylanishi lozim.

Umuman olganda, hudud iqtisodiyotini barqaror va muvozanatli rivojlantirishda sanoat tarmogʻi markaziy oʻrin tutadi. Sanoatni innovatsion asosda modernizatsiya qilish, klasterlashuvni kengaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirish hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Marshall, A. (1890). Principles of economics. Macmillan.
2. Weber, A. (1929). Theory of the location of industries. University of Chicago Press. (Original work published 1909)
3. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. Free Press.
4. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90.
5. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5), S71-S102. <https://doi.org/10.1086/261725>
6. Lucas, R. E., Jr. (1988). On the mechanics of economic development. Journal of Monetary Economics, 22(1), 3-42. [https://doi.org/10.1016/0304-3932\(88\)90168-7](https://doi.org/10.1016/0304-3932(88)90168-7)
7. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press.
8. Krugman, P. (1991). Geography and trade. MIT Press.
9. Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A. J. (1999). The spatial economy: Cities, regions, and international trade. MIT Press.
10. World Bank. (2020). World development report 2020: Trading for development in the age of global value chains. World Bank Publications.
11. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2018). Industrial development report 2018: Demand for manufacturing. UNIDO.
12. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. T.: TDIU, 2004. - 18 b.
13. Lall, S., (2000). Technological Change and Industrialization in the Asian Newly Industrializing Economies: Achievements and Challenges. In: Technology, Learning and Innovation: Experiences of Newly Industrializing Economies, eds. Kim, L. and Nelson, R.R., Cambridge: Cambridge University Press.
14. Szirmai, A., and Verspagen, B., (2011). Manufacturing and Economic Growth in Developing Countries, 1950-2005. UNU-MERIT Working Paper Series 2011-069. Maastricht, The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.
15. McMillan, M., and Rodrik, D., (2011). Globalization, Structural Change and Productivity Growth. In Making Globalization Socially Sustainable, eds. Bacchetta, M., and Jansen, M. Geneva: International Labour Office and World Trade Organization.
16. Szirmai, A., Naude, W., and Alcorta, L., (2013). Introduction and Overview: The Past, Present and Future of Industrialization. In Pathways to Industrialization in the Twenty-First Century: New Challenges and Emerging Paradigms, eds. Szirmai, A., Naudé, W., and Alcorta, L. Oxford, UK: Oxford University Press.

17. Lavopa A., and Szirmai A. (2012). Industrialization, Employment and Poverty, UNU-MERIT Working Paper Series 2012-081. Maastricht, The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.
18. UNIDO. Industrial Development Report 2016. Sustaining Employment Growth: The Role of Manufacturing and Structural Change. Vienna, Austria. 2013. <https://www.unido.org>.
19. Роль промышленности в развитии экономики страны [Электронный ресурс]. URL: <https://intuit.ru/studies/courses/3592/834/lecture/31376?page=3>.
20. Международная стандартная отраслевая классификация всех видов экономической деятельности. Серия М № 4, Rev. 3.1. Нью-Йорк: Организация Объединённых Наций, 2005. - С. 53-120.
21. Родионова И.А. Мировая промышленность: структурные сдвиги и тенденции развития (вторая половина XX - начало XXI вв.): монография. - М.: ГОУ ВПО МГУЛ, 2009. - 231 с.
22. Тенденции социально-экономического развития Узбекистана (2005-2014 гг.) / под общ. ред. д.э.н. А.М. Садыкова. - Ташкент: ИФМР, 2015. - С. 32-38, 87-88.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**